

**Farg‘ona davlat universiteti filologiya
fakulteti adabiyotshunoslik kafedrası
dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD) G.Oripova
taqrizi ostida**

**Sayidolimov Javoxir
FarDu, Adabiyotshunoslik kafedrası
o‘qituvchisi
Ne‘matova Ruxsora
FarDu filologiya fakulteti 2-kurs talabasi**

O‘ZBEK ADABIYOTIDA HAZRAT ALI OBRAZINING YORITILISHI

(“Lison ut-tayr” va “Tarixi Muhammadiy” asari misolida)

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy obraz bilan boqliq nazariy qarashlar “Lison ut-tayr” va “Tarixi Muhammadiy” asarlar misolida ochib berishga harakat qilingan. Bu jarayonda chahoriy yorlardan hisoblangan Hazrati Ali obrazi bilan bog‘liq lavhalar asos qilib olingan. Shu bilan bir qator mazkur obrazining agiografik xususiyatlar haqida ham qisqacha so‘z yuritilgan. Sharq mumtoz adabiyotida obraz yaratishning o‘ziga xos jihatlar yuqoridagi asarlarda orqali tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Obraz, obrazlilik, tarixiy shaxs, badiiy adabiyot, badiiy reallik, agiografik adabiyot, mazjoziylik, xalq og‘zaki ijodi.

ОСВЕЩЕНИЕ ОБРАЗА ХАЗРАТА АЛИ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

(На примере произведений “Лисон ут-Тайр” и “Тарих Мухаммади”)

Аннотация: В данной статье делается попытка раскрыть теоретические взгляды на художественный образ на примере произведений “Лисон ут-Тайр” и “История Мухаммади”. В этом процессе за основу были взяты кадры, связанные с образом хазрат Али, считавшегося чохорийцем. При этом кратко упоминаются и агиографические особенности данного образа. Специфические аспекты создания образа в Восточной классической литературе были подвергнуты анализу в вышеупомянутых работах.

Ключевые слова: Образ, образность, историческая личность, художественная литература, художественная реальность, агиографическая литература, образность, устное народное творчество.

COVERAGE OF THE IMAGE OF HAZRAT ALI IN UZBEK LITERATURE

(On the example of “Lison ut-tayr” and “History Muhammadi”)

Annotation: In this article, theoretical views on immortality with an artistic image were tried to reveal on the example of the works “Lison ut-tayr” and “History Muhammadi”. In the process, plaques associated with the image of His Highness Ali, calculated from chahari Yors, were taken as a basis. With this, a brief mention is also made of the agiographic features of the image in question. In eastern classical literature, specific aspects of image creation are drawn into analysis through the above works.

Key words: Image, figurativeness, historical personality, fiction, artistic realism, agiographic literature, objectivity, folk oral creativity.

Lugʻaviy maʼnosida har qanday aksni bildiruvchi “obraz” soʻzi turli fan sohalarida muayyan terminologik maʼnoda qoʻllanadi. Shu sababli ham badiiy obraz adabiyot va sanʼatning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi. Inson olamni badiiylik asosida tushunadi va tushuntiradi. Jumladan, estetika va adabiyotshunoslikda u “badiiy obraz” maʼnosida tushuniladi. Badiiy obraz deganda, borliq undagi inson, narsa, hodisaning sanʼatkor koʻzi bilan koʻrilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksi tushuniladi. Albatta, bu aksda borliqning koʻplab tanish izlari bor, biroq endi u biz bilgan borliqning ayni oʻzi emas, balki undan shartlilik asosida ajralgan yangi mavjudlik - badiiy borlikdir. Xuddi shu hol badiiy obrazni obyektiv va subyektiv ibtidolar birligiga aylantiradi. Yaʼni, bir tomondan, borliqning aksi sifatida badiiy obraz makon va zamonda mavjud boʻlgan konkret narsadek his etiladi. Ikkinchi tomondan, u tushuncha, tasavvur, faraz va shu kabi tafakkur unsurlariga xos xususiyatlarga ega: ijodkor badiiy obraz vositasida fikrlaydi, borliqni oddiygina aks ettirmasdan, uni ijodiy qayta yaratadi va kitobxonga shu asosda tushuntirishga kirishadi, asarning taʼsir kuchini oshiradi.

Sharq mumtoz adabiyotida islomiy qadriyatlarning keng hududlarga yoyilishiga xizmat qilgan sahobalar va ular bilan bogʻliq voqea-hodisalarning obrazli qilib tasvirlanish mumtoz asarlarga boʻlgan qiziqishning ortishiga sabab boʻlgan. Sahobalar (yoxud as-sahoba, sohib –“tarafdor”ning koʻpligi - ashob) – Muhammad (s.a.v)ning safdoshlari, u zot bilan muloqotda boʻlgan yoxud gʻazotlarida qatnashgan kishilar , keyinchalik Muhammad (s.a.v)ni loqal bir marotaba, garchi goʻdaklik chogʻida boʻlsa ham koʻrgan barcha kishilar sahobalar deb atala boshlagan. Sahobalarga boʻlgan hurmat, ehtirom keyinchalik ularning qabrlarini eʼzozlashga va sahobalarning fazilatlarini haqida asarlar paydo boʻlishiga olib keldi.

Sahobalar bilan bir qatorda chahoriyorlar obrazi ham oʻziga xos usulda tasvirlangan. Choryorlar (fors. - toʻrt doʻst) - Muhammad (s.a.v) vafotlaridan keyin arab xalifaligida hokimiyat tepasida turgan dastlabki toʻrt xalifa (Abu Bakr Siddiq Umar, Usmon, Ali). Choryorlar arab tilidagi diniy manbalarda “xulafo ar-roshidin” (“toʻgʻri yoʻldan borgan xalifalar”) nomi bilan tilga olinadi. Musulmonlar choryorlarni “paygʻambar noiblari” hisoblaydilar. Islom anʼanasida choryorlar hukmronlik davri islomning oltin asri deb yuritiladi.

Chahoriyorlardan hisoblangan Hazrati Ali bilan bogʻliq voqealar nafaqat yozma adabiyotda hattoki xalq ogʻzaki ijodida ham keng tarqalgan boʻlib, koʻplab qissalar yaratilgan. Ali ibn Abu Tolib Paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v) ning tarbiyasida oʻsgan va yosh bolalardan birinchi boʻlib islomni qabul qilgan. Jannat bashorati berilgan sahobalardan biri, choryorlarning soʻnggisi hisoblanadi .

“Paygʻambarimiz (s.a.v) doimo aytar ekanlar:

- Ali Alloh va Rasulni sevar, Alloh va Rasul ham uni sevadi.
- Alini sevgan meni sevar, meni sevgan Allohni sevadi
- Men Alinikiman, Ali esa menikidir.
- Munofiq Alini sevmas, moʻmin boʻlgan ham unga gina saqlamas.
- Kimki Alini sevsa, u meni ham sevar.

Paygʻambarimizning bunday ulugʻ iltifotlariga uchraganlikdan dunyo va oxirat sharafiga ega boʻldilar.

Alixontoʻra Sogʻuniyning “Tarix Muhammadiy” asarida keltirilishicha, Paygʻambarlik vahiysi kelgan vaqtda Hazrati Ali yosh bola boʻlib, Paygʻambarimizning xizmatlarida edi. Bir kuni Paygʻambarimizning oʻqigan namozlarini koʻrib: “Bizning xalqimizda yoʻq odat, bu qandoq ish?” deb soʻradi. Anda Paygʻambarimiz: “Alloh taolo butun ins-jinlarga meni Paygʻambar qildi. Ibrohim Xalilullohning tutganlari Islom dinini Alloh tarafidin kelturdim. Butun xalqni ushbu dinga daʼvat qilishga meni Alloh taolo buyurdi. Bundan

boshqa dinlar barchasi botildur”, deganlarida, Hazrati Ali balog’atga yetmagan yosh bola bo’lsa ham, haqiqatga tushunib darhol iymon kelturdi. Dastlab Payg’ambarimizning urug’ – tuqqanlaridan hazrat Alidan boshqa hech kim dinga kirmagan edi. Ijodkor yosh Alining obrazini yaratar ekan bevosita kattalar tushuna olmagan voqelini bola obrazi orqali tasvirlaydi va ibrat sifatida o’quvchi ko’z o’ngida gavdalaniradi.

Muallif mazkur obrazini kitobxonga yetkazishda eng nozik jihatlarga ham alohida e’tibor qaratadi. “Muhammad (s.a.v) muhojir va ansor sahobalar o’rtasida diniy bir qarindoshlik bog’ladilar. Dedilarkim:

- Alloh aytmagan so’zni “Alloh aytdi demakdin O’zi saqlasun, Xudo yo’lida ikki – ikkidin qardosh bo’laylik , - deb hazrat Alining qo’llarini tutib : “Mening qarindoshim shudur”, dedilar . Ikkovlari oxiratlik do’st bo’ldilar. Ushbu bog’langan qarindoshlikda aslida biri muhojir, ikkinchisi ansoriylardan bo’lishi shart edi. Lekin Payg’ambarimiz hazrat Alini tanladilar. Alloh va uning Payg’ambari Rasululloh oldida bu Mardi Haqning qanday ulug’ martaba topganlari ushbu so’zlaridan ham ma’lumdir. Alixonto’ra Sog’uniy “Tari Muhammadiy” asarida Hazrati Ali bilan bog’liq voqealarni yuqoridagi kabi ta’sirchan usulda tasvirlaydi.

Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonining mo’minlar amiri Hazrat Ali (a.r) vasfiga bag’ishlangan o’n birinchi bobida bu zotning payg’ambarimizga farzand darajasida bo’lganliklarini aytib, ular orasida “men senikiman, sen menikisan” degan ahd mavjudligiga ishora qiladi va keyingi bobda Hazrat Alining e’tiqod va ibodatda mustahkam ekanliklari vasf etilgan hikoyat keltiriladi. Unga ko’ra, g’azot janglaridan birida Hazrat Aliga o’q tegadi. O’qning uchi ularning suyaklarigacha botib, tortib olishning iloji bo’lmaydi. Shunda sahobalar payg’ambarimizdan bu ishning chorasini so’rganlarida, Rasuli akram “U namoz o’qiyotgan paytda o’qni tortib olish payida bo’lingiz. U namozga shunday berilgan bo’ladiki, o’qni tortib olganlaringni bilmay qoladi”, - deyдилar . Sahobalar aytilganidek qiladilar va Alloh kushoyish berib, bir lahzada jarohatdan na dard-u na o’q uchi qoladi. Alisher Navoiyning mazkur asarida Hazrati Ali obrazi sabr-qanoat, jasurlikka yo’g’rilgan holda tasvirlanadi. Natijada kitobxon ta’sirlanish barobarida jo’mardlik qanday bo’ladi degan savolga javob topadi.

Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida Hazrat Ali obrazini ilm daryosi va valiylik gavhari, olam ahli orasida noyob edi ta’riflaydi. Payg’ambarimizga tuzoq qo’yishganida o’z jonini xavfqa qo’yib uni o’rniga yotgan edi. Shu qilgan ishi bilan Payg’ambarimizga nihoyatda muhabbat qo’rganini bilishimiz mumkin. U din ahli orasida mo’minlar amiri va taqvodorlar orasida taqvodor imom deya ulug’laydi. Ilm sharhi va nabiylkda yetukligi uchun uning vasfida Ali bebaho deyishgan. Duldulining yugurishi yashinga o’xshaydi, zulfiqoridan yov qon ichra g’arqdir. Bunday ta’svirlanish asarning agiografik xususiyatlarini ham namoyon etadi. Agiografik obraz orqali berilsih asarning badiiy qiymatining oshishiga ham sabab bo’lgan omillardan biri hisoblanadi.

Hazrat Alining butun umrlari Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v) bilan yonma – yon kechdi. Islom dushmanlari bilan bo’lgan janglarning barchasida buyuk qahramonliklar ko’rsatdilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam vafot etganlarida jasadlarini o’zlari yuvdilar. Hazrat Ali hayoti davomida biror marta butga sig’inmaganlari va johiliyat iflosliklaridan uzoqda bo’lganliklari uchun “karramallohu vajhahu” (Alloh yuzini mukarram qilsin) deb sifatlaganlar. Butun hayotlarini islom xizmati uchun sarfladilar. Alloh taolo mo’minlarning fidoyi va jasoratli amiridan rozi bo’lsin! Xalq og’zaki ijodida ham mazkur obraz bilan bog’liq lavhalarning keltirilishida ham bu asarlarni tarixiy manba sifatida emas badiiy asar sifatida qabul qilsihimiz uchun asos bo’ladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Quronov D., Mamajonova Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –Toshkent: Akademnashr, 2013.
2. Islom ensiklopediyasi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: 2004
3. Alixonto'ra Sog'uniy. Tarixi Muhammadiy. – Toshkent: Munir, 2021.
4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik – Toshkent: Tamaddun, 2018.
5. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023.